

Сўфий - табиб шайх Нурсафардий

Маънавий етуклик ёхуд комиллик сарҳадлари

*Бизнинг амалларимиз техникавий, кимёвий
ёхуд сиёсий тараққиёт эмас, балки инсоний
тараққиётдир.*

Нурсафардийя фалсафаси хақида гап кетганда, тўла ишонч билан айтиш мумкинки, Ҳақ инояти бирла халқимиз комиллиги йўлида мукамалликка асосланган илмий назариямиз ва амалиётимиз миллатимиз учун саодат сарҳадларини очиб берадиган маданий ва маърифий манбаа бўлиб қолишига ишончимиз комилдир. Бизким халқимиз, миллатимиз ва ватанимиз манфаатларини кўзлаган ҳолда, ушбу тизимга бекаму кўст кириб келдик. Халқимизнинг маданияти, маънавияти ва маърифий салоҳияти ватанимиз равнақи учун хизмат қиладиган асосий омиллардан биридир. Ва биз бундай омилларни ўз назария ва амалиётларимизда мукамаллаштирган ҳолда комиллик сарҳадларига қадам қўйдик.

Биз танлаган йўлнинг асосий мақсадлари нималардан иборат?

Бизнинг асосий ютуғимиз халқ йўлида турганимиздир... Биз халқ бўлиб туғилдик ва халқ бирла биргамиз. Нимаики эзгу - ниятларимиз бўлса халққа бағишладик ва Ҳақ йўлида туриб амалларимизни доимий мукамаллигини таъминладик. Халқни маданий , маънавий даражасини кўтариш, илмий салоҳиятини ошириш назариямизнинг асосий принципларидан бирига айланди.

Бизнинг фалсафа жамиятда ўз ўрнига эга комиллик фалсафаси бўлиб қолди. Илмий назарияларимиз сиёсий таълимот, иқтисодий ва ёйинки, диний таълимотни ўз дастурларига киритмади. Оддий қилиб айтадиган бўлсак, бизнинг фалсафа умуммиллий қадриятлар намунасига айланган одамийлик мактабига асос солди. Бу мактабда сиз эзгуликка йўғрилган, комил инсон ва мукамал шахс тимсолини кўрасиз...

Бизнинг жаннат юртимиз ўз илмий салоҳияти билан дунёни лол қолдириб келган диёрдир... Дунё тафаккур танқислиги рўй берган, нобоп тараққиёт ортидан олам аҳли боши берк кўчага кириб қолган, глобал маданийлашув қулоч ёйиб миллатлар маънавий ва маданий меросларига, азалий урф - одатларига хавф солаётган бир пайтда миллатимиз, халқимизнинг асл ўзлигини асраб қолиш ҳар бир ватандошимизнинг муқаддас бурчи бўлиб қолмоғи керак. Кейинги йилларда тан олиб айтишимиз лозимки, айнан глобал маданийлашув ва техник нобоп тараққиёт таъсирлари бизнинг юртимизни ҳам четлаб ўтмади. Халқимизнинг маданий бойлиги евромаданият услуби билан қоришиб кетди. Маърифий илмлар ўз кучини йўқота бошлади. Маънавиятимиз, глобал маданийлашув таъсиридан халқимиз тафаккуридан йироқлашиб бормоқда. Халқимизнинг илмга чанқоқлиги салоҳияти сўниб бормоқда. Агарким, биз миллат сифатида, халқимизни турли маданий оқимлардан холос этмасак, миллат сифатида ўз қадримизни йўқотиб қўйишимиз ҳеч гап эмас. Биз юксак илм чегараларидан йироқлашиб оддий ҳаёт

тарзига ўрганиб қолдик. Асосий юмушимиз бойлик орттириш, чиройли иморат қуриш, машина, компьютер, миллатимизга хос бўлмаган турли одатлар кашфиёти, манманлик билан ўзимизни кўз - кўз қилиш, бир - биримизга ҳасад билан қараш бўлиб қолди. Биз миллатимиз кўзгуси бўлган меҳр - оқибат, саховат, сахийлик, адолат ва ҳақиқат, эзгулик ҳақида ўйламай қўйдик. Олам аҳли учун намуна бўладиган бебаҳо урф - одатларимиз унутилиб бормоқда. Миллий либосларимиз ўрнини европа кийимлари эгаллади. Сўзлашув маданиятимизни қадрли сусайди. Бу ҳолатлар нимадан дарак беради, оммавий манқуртлик касалидан... Манқуртликка чалинган миллат ўзлигини йўқотади, унинг на келажаги ва на тарихи бўлади... Манқурт миллат ҳамиша ўзга кучлар таъсири остига қолиб кетади. Шунинг учун ҳам миллат равнақи, ватаннимиз келажаги учун курашиш уни фақатгина илмий салоҳият билан бойитиш, бугунги кунда ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиз бўлмоғи керак.

Хўш, нима қилмоқ керак, деган савол ҳаммамизни ўйлантиради. Биринчи навбатда халқимизнинг маданий ҳаётини юксалтиришимиз керак. Миллий маданият юксалган бир пайтда халқимиз онгида тафаккур дурдоналари кўз очади... Миллатимиз онгида илмга бўлган чанқоқлик ўз самарасини бера бошлайди. Миллий маданиятни қандай принциплар асосида юксалтириш мумкин? Жамиятда порахўрлик, ичкиликбозлик, гиёҳвандлик, манманлик, меҳр - оқибатнинг йўқолиши, турли хил майда ва хавфли жиноятлар нимага содир бўлади? Инсон ҳаётда ўз ўрнини топиши учун оилавий тарбияни ўзи камлик қилади. Ҳар томонлама мукамал бўлмаган шахс ҳаётнинг турли синовлари йўлида боши гангиб қолиши табиий ҳолдир. Шахсни ана шундай мураккаб ҳаёт йўлида адашмаслиги ва тўғри йўл топиши учун назаримда инсонийлик мактабларини ташкиллаштириш керак. Ва биз бу йўлда шахснинг ички дунёсини кашф қилиш сирларини ўрганишимиз, инсоннинг физиологик руҳий ҳолатида ижобий информация қабул қилиш марказларини уйғотишимиз орқали комиллик ва мукамаллик сарҳадларига кенг йўл очишимиз керак. Миллат кўзгусига айланиши лозим бўлган инсонийлик мактаби халқимиз учун, жамиятимиз учун, ватаннимиз учун мукамаллик тимсоли бўлиб қолиши табиий ҳолдир. Бундай гўзал ва беқиёс тимсолга фақатгина ўзликни англаш орқалигина эришимиз мумкин. Биз бундай мукамаллик мактаблари алоҳида очилиши фикридан йироқмиз, албатта. Олайлик фарзандларимиз тўққиз йиллик мактабни битадиришди. Бу пайтда уларнинг онги айни илмга чанқоқ бир даврига тўғри келади. Ҳукуматимиз томонидан бунёд этилган касб - ҳунар коллежлари ва лицей бошланғич олий таълим масканлари биз таклиф киритаётган таълим учун айни муддао ва имконият белгисидир. Ёшларимиз уч йиллик ўқиш давомида икки йилини касб ва илмга бағишлаб, сўнгги бир йилини инсонийлик мактаби курсларидан дастурамал ўтсалар ўйлаймизки, илмий салоҳиятлари билан бирга

теран тафаккур орқали ва энг кераги миллийликка асосланган ҳаётӣй фаолиятларида миллатимизга, халқимизга нисбатан ёрқин келажакни таъминлаган бўлардилар.

Тасаввур қилинг, учинчи курс инсонийлик мактаби босқичи... Бу курслардан сўнг имтиҳон тизимини йўлга қўйиш керак... Ҳар бир шахс мустақил ҳаётга қадам қўйишдан олдин инсонийлик имтиҳонидан ўтиши лозим бўлади. Агар шахсда инсонийлик туйғулари ожиз бўлса ундаги илм ҳам жамиятга фойда беролмайди. Аксинча, у ўз илмини миллат равнақи учун эмас, шахсий манфаати учун фойдаланади. Жамиятдаги барча қусурлар айнан инсонийлик мактаби йўқлигидан пайдо бўлмаяптими? Инсонийлик мактабида таълим олган шахсни илмий салоҳиятини имтиҳон қилиш шарт эмас. Чунки инсонийлик имтиҳонидан ўтган фарзанд ақлан ва тафаккуран илми не чоғли қадрли эканини яхши тушунади ва ҳеч қандай бир буйруқсиз билимга ўзи интилади.

Инсонийлик мактаби дастурида қандай қўлланмалар мавжуд ва у шахсга нима беради? Биринчидан шахс ўзлигини англайди, кимлигини, миллатни англайди. Комиллик ва мукамаллик сирларини ўрганади. Бу йўналишда дарсликлар ишлаб чиқариш олимларимиз ихтиёрида. Миллий маданият нима, миллий маънавият нима, миллатимизнинг бебаҳо урф -одатлари, тарихий буюклик, маърифат бу ёрқин келажак, мен аслида кимман? Биз буюк миллатимиз, одамийлик эҳсонлари, борлиқ ва борлиғим, саломатлик сирлари, ҳайвонот ва наботот, юртим таърифимда, мен ватанни севаман, халқ ўйинлари, миллий пазандалик, ўзбегим либослари, мумтоз наволар каби дарсликлар ўйлаймизки, миллатимизнинг ҳаётӣй тажриба ва илмий салоҳиятига бебаҳо ҳисса қўшади. Ва айнан ана шундай йўналишдан битирув имтиҳонлари жорий қилинса, фарзандларимизни ватанга, миллатимизга, халқимизнинг маданияти, маънавияти, урф -одатларини нақадар теран англашига қараб унинг комиллик даражасини англаб оламиз. Инсонийлик мактабида инсонийликнинг энг гўзал ҳам ички, ҳам ташқи қиёфаси мужассамланган. Бунда фарзандларимиз инсонийликнинг энг гўзал туйғуларини ўрганадилар. Мураккаб ҳаётга комил инсон сифатида кириб борадилар. Биз умримиз давомида ҳаётнинг оддий кўринган гўзал туйғуларидан баҳра олмас эканмиз, ҳаётнинг мураккаб йўлларида адашиб қолишимиз ва бунинг оқибатида жамиятга зарар келтирувчи нобоп ҳаракатларимиз доимий одатимизга айланиб қолиши мумкин. Келинг, қўйида ана шундай туйғулар ҳақида фикр юритамиз.

ОДОБ ҳақида, одоб кўнгил чашмасининг гавҳари. Одобнинг одатлари инсоннинг бегагидир. Одобнинг хислатлари сизни камолот бўстонига олиб киради. Ширин муомала, камтарлик, тилни ноўрин сўзлардан тиймоқ, ёмон хислатлардан кўз юмиш ва ҳоказо.

АХЛОҚ хақида. Ахлоқ кўнгилнинг ширин мевасидир, ота - она маслаҳатига қулоқ тутиш, тарбиячининг сабоғига амал қилиш, кўпроқ китоб мутоала қилиш, дўст танлашда эҳтиёт бўлиш, ёмонлар суҳбатидан йироқ юриш, яхшилар хизматида бўлиш ва ҳоказо.

ТАРБИЯ, ота - она тарбияси, боғча тарбияси, мактаб тарбияси, устоз тарбияси, вужуд тарбияси ва ҳоказо.

ТАРТИБ, тартиб кўнгил кўчасини одоб йўриғи билан пок сақлашдир. Тартибли киши доимо ахлоқий удумларни ҳурмат қилади. Жамият олдида ўз бурчини муносиб бажариб, ножўя ҳаракатлардан йироқ юради. Хиёнат қилмаслик, сабрли бўлиш, тўғрисиўзлик, касбга меҳр, оилада жонбозлик ва ҳоказо.

ИНТИЗОМ, кўнгил боғининг лоласидир. Интизомли шахс камолот сари интилади. Ақл кўзини очмоқ, удумларга риоя этиш, амалларни вақтида бажариш, ваъданинг устидан чиқиш, ёмон хислатлардан юз ўгириш ва ҳоказо.

ҲИССИЁТ, ҳиссиёт кўнгил боғини равшан этувчи онгдаги ботиний кучдир. Ўзини тута билиш, фаросатни юксалтириш, гуноҳдан йироқ туриш, кўнгилни пок сақлаш ва ҳоказо...

РУҲИЯТ, кўнгилнинг боғбонидир. Руҳият пок бўлса кўнгил гулшани ободдир. Ҳаромдан ҳазар қилиш, онгни юксалтириш ва ҳоказо.

КАЙФИЯТ, руҳиятни бошқариш, келажакка ишонч, яхши дам, мукамал илм ва ҳоказо.

БОКИРАЛИК, хушхулқлик, нозик туйғу, чиройли феъл-атвор, меҳрибонлик, ҳаё, эҳтирос, гўзал фазилатлар ва ҳоказо.

ОЗОДАЛИК, руҳиятни поклаш, чиркин одатларни кўнгилга сиғдирмаслик, вужудни пок сақламоқ, ёмон иллатларни одат қилмаслик, соғлом муҳитни яратиш ва ҳоказо.

ГЎЗАЛЛИК, кўнгил гавҳари, кўнгил гўзаллиги инсоннинг ботиний жавоҳири. Ўзтиқод, содиқлик, сахийлик, хушхулқлик ва ҳоказо.

САБР, ҳаёт синовларига бардош, келажакка ишонч билан қараш, курашувчанлик ва ҳоказо.

МУОМАЛА, инсон зийнати, ширинсуханлик, хушхулқлик, ахлоқий тушунчалар ва ҳоказо.

САХОВАТ, сахийлик савоблари, инсонпарварлик туйғулари ва ҳоказо.

САХИЙЛИК, баҳамжиҳатлик мезонлари, меҳр - оқибат нишонлари, мискинларга мурувват ва ҳоказо.

ФАҲМ - ФАРОСАТ, илм ўрганиш, донолар суҳбатига интилиш, ўзгаларни ҳурмат этиш, иймон эътиқодли бўлиш, дунёни англаш ва ҳоказо.

АҲДУ – ВАФО, қалб жавоҳири, кўнгилнинг кўзидир. Ваъданинг устидан чиқмоқ, муҳаббатга ишонч, севгига доғ туширмаслик, ота - она бурчини адо этмоқлик, халқ хизматида бўлиш, Ватанга содиқлик ва ҳоказо...

БАҲАМЖИҲАТЛИК, инсон қудрати, халқ қудратидир, баҳамжиҳатлик, халқ дарди билан яшамоқ, унинг ижтимоий маънавий юксалишига ҳисса қўшмоқдир. Ҳиммат, хизмат, ҳақиқат ва ҳоказо.

БАҲОДИРЛИК, халқ манфаати йўлида курашмоқ, миллий ўзликни ҳимоя этиб, ватан тупроғи учун жонфидоликдир. Ватанпарварлик, халқпарварлик, ғурур, мардлик, матонат, жонфидолик ва ҳоказо.

ЗАҲМАТ, матонат тимсолидир. Сабр, нафс одоби, ўзликни англаш сабоқлари ва ҳоказо.

ЗЕҲН, онгнинг беагаи, руҳиятнинг гавхаридир. Вужуд тарбияси, илмга чанқоқлик, хотирани мустаҳкамлаш, мутоала ва ҳоказо.

ЗИЁРАТ, савобнинг асл турларидан бири. Оддий одамлар зиёрати, авлиёлар қабрини зиёрат қилиш, ота - она ва ёру дўстларни зиёрат этмоқ ва ҳоказо.

ИСТАҚ, кўнгилнинг иштиёқидир. Ўткир зеҳн, тиниқ нигоҳ, юмшоқ майл, ҳаракат ва мақсад ва ҳоказо.

ОИЛАПАРВАРЛИК, муқаддас даргоҳ, кичик жамият. Фарзандларга нисбатан меҳрибонлик, комил тарбия, аҳиллик ва ҳоказо.

ҲАМДАРДЛИК, кўнгил одоби, кўнгилчанлик, камтарлик, сахийлик, шериклик ва ҳоказо.

МОҲИРЛИК, кўнгил кўчасининг равонлигидир, меҳр, заҳмат, матонат, мардлик ва ҳоказо.

МЕҲМОНДЎСТЛИК, кишига кибру ҳаво, манманлик ётдир, одати камситмаслик, тортишмаслик, муомала маданиятини намоён этиш ва ҳоказо.

ПАРҲЕЗКОРЛИК, вужудни саломат сақламоқ демакдир. Кундалик еб ичмоқ, тилни ёмон сўзлардан тиймоқ ва ҳоказо.

РАҲБАРЛИК, манманлик кибру ҳаво эмасдир. Камтар, мулойим, ўз ўрнида қаттиққўл тадбирли, талабчан ва ҳоказо.

РАҲМДИЛЛИК, меҳр булоғидан қайнаб чиққан малҳам. Меҳрибонлик, сахийлик ва ҳоказо.

СИПОҲЛИК, ўзини пок сақлаш, ғурурли, нозиктабиат, халқчил, элпарвар ва ҳоказо.

ФАЗИЛАТ, оқибатли бўлмоқ, одобни юксалтириш, ахлоқни ўзлаштириш, тарбия кўрганлик, интизомга риоя этиш ва ҳоказо.

ХАЙР- ЭҲСОН, яхшилик, оқибатлилик, саховатли бўлиш ва ҳоказо.

АДОЛАТ, иймонли бўлмоқ, мард ва жасурлик, жаҳолатга қарши мардона кураш, ҳақиқатпарварлик ва оила, маҳалла, юрт, ватан шаънини ҳимоя қилмоқлик ва ҳоказо.

ЭҲТИЁТКОРЛИК, зарарли одатлардан чекиниш, ахлоқи бузуқлардан йироқ юриш, тилни тийиш, яхши ва ёмонни фарқига бориш, нафсни тийиш ва ҳоказо.

ЭҲТИРОС, қалб кўзгусининг тўлқинидир. Яхшиларга ошно тутиниш, гўзал туйғулардан баҳра олиш, ҳаётдан завқланиш ва ҳоказо.

СОДИҚЛИК, ваъдага вафо туркумлари, ватанга, миллатга, урф -одатларга, ўзлигига содиқлик.

САЛОМАТЛИК, кундалик режим тақвими, парҳезкорлик амаллари, спорт турлари ва ҳоказо.

ОРИЯТ, қалб гўзаллиги. Нопокликка ёт ваъдасига содиқлик, теран фикрли, парҳезкор, камгап, камсуқумлик ва ҳоказо.

МАДАНИЯТ, инсон қиёфаси. Тарбия, одоб, ахлоқ, интизом, тартиб, илм, маънавият ва ҳоказо.

ЎЗНИ ТУТМОҚ, ақлни чархлаш, ориятли бўлмоқ, камтарлик, камгаплик, ғурурли бўлмоқ, каттага ҳурмат, кичикка иззат, ота - онага меҳрибонлик, ўзгаларга хокисорлик, муомала маданиятини юксалтириш ва чекиш, ичиш, гиёҳвандлик, кибру - ҳаво, ғафлат, такаббурликдан йироқ юриш ва ҳоказо.

ДЎСТ ТАНЛАШ, унинг ички дунёсини англаш, синов муҳлати, одоби, ахлоқига нигоҳ, содиқлигини англаш ва ҳоказо.

КАСБГА МЕҲР, садоқатлилик, ҳалоллик, яратувчанлик ва ҳоказо.

ФАРЗАНД ҲАҚИДА, ота - онага меҳрибонлик, оқибатлилик, насиҳатларга амал қилиш, ватан олдида мардлик, матонат, қаҳрамонлик, халққа ҳурмат, ватанга хизмат ва ҳоказо.

ОТА- ОНА, СОФДИЛЛИК, АҚЛ, ИЛМ, ҚУВВАТ, ШИЖОАТ, ИХЛОС, ҚАДАМ, ТАФАККУР, ХИЗМАТ, ХОТИРЖАМЛИК, ИЧКИ ОЛАМ, ФУРСАТ, ШУКР, ФАНО, БАҚО ҲАҚИДА, келинг инсонийлик фаолиятида неки эзгу ниятлар бор шу мактабда ўргансинлар. Амалиёт борасида тарихий музейларга ташриф буюриб мозийни ўргансинлар, сўлим қишлоқларимизга тадбир ва сайр уюштириб қадимий урф - одатларимизни, миллий ўйинлар ва лапарларимизни момоларимиз, боболаримиздан ўрганайлик, ўқув масканларида миллий либослар кўргазмаси, урф - одатларимизга асосланган халқ ўйинлари мусобоқалари, миллий таомлар тайёрлаш борасида моҳир пазандалик танловларини ташкиллаштирак мақсадга мувофиқдир. Шундай қилиб, юқорида айтиб ўтилган дарсликлар қаторида назарий томондан ҳафтада кундалик ўқув дастурига беш соатлик ўқиш тартиби киритилса, масалан, душанба кунини Рухият дарси, Саломатлик дарси, Интизом дарси, Зеҳн дарси, Софдиллик дарси. Кейинги кун кундалигида Аҳду вафо дарси, Баҳодирлик ва мардлик дарси, Моҳирлик дарси, Парҳезкорлик дарси, Оилапарварлик дарси, Раҳбарлик дарси ва ҳоказо. Дарсликларни давом эттиришимиз мумкин. Ватанпарварлик дарси, Халқпарварлик дарси, Орасталик дарси, Содиқлик дарси, Бокиралик дарси, Одиллик дарси, Эътиқод дарси,

Муомала дарси, Гўзаллик дарси, Савдо - сотиқ ва ўзбек бозори дарси ва ҳоказо. Амалиётда эса халқ ўйинлари, миллий анъаналарга асосланган либослар кўриги, миллий таомлар беаги, миллий ҳунармандлик ва ҳоказо... Ушбу биз тақлиф киритаётган ўқув дастурларимиз фақат коллеж ва лицейларимиз учун мўлжалланган. Ва ушбу тизим ўқув масканларининг қайси бир йўналиши бўлсин барчаси учун бирдек зарур ҳаётий комиллик мактабидир. Институт ва университетларда бу тарбия усулида бир оз кеч қоламиз. Чунки олий ўқув юртига кириш ҳар кимга ҳам насиб этавермайди ва кўпчилик ёшларимиз бундай мукамал илмдан бебаҳра қолишлари мумкин. Ушбу мактаб дарсликлари ҳали фарзанди вояга етмаган оилалар, маҳалла оқсоқоллари, давлатимиз ўз ҳимоясига олган етимхоналар учун ҳам муҳим қўлланмадир. Ёшлар мустақил ҳаётга қадам қўйиб бирор муаммога дуч келсалар, айнан инсонийлик принципи мукамал бўлмагани учун, ё ўша муаммони нотўғри ҳал қилади ва ё муаммодан қочадилар. Инсонийлик мактабида таълим олган шахс нафақат жамиятда ўз ўрнини топади, балки оилада ҳам тарбия усули кучайтирилиб бу ҳолат келажакда оилавий анъанага айланади.

Биз ушбу дастур бўйича барча дарсликларни тайёрлашни, керак бўлса ўз зиммамизга оламиз ва бу борада фалсафий назарий, илмий ва руҳий билим тажрибамизга эгамиз. Шу билан бир қаторда қўшимча ўқув дастурларини мукамал тарзда тайёрлаш хизмати олимларимиз зиммасида ва биз ҳам уларга ёндош турган ҳолда ўз, назарияларимиз билан ҳисса қўшишга тайёр ҳолатдамиз. Биз истардикки, миллий ҳаёт тарзимизни қайта оиламизга киритайлик, миллий либосларимизга қайтайлик, халқ ўйинларини тиклайлик, муомала маданиятимиз юзимизда уфуриб турсин. Ана шунда биз тафаккуримизга салбий таъсири билан манқуртлик ботқоғига ботирувчи ҒАРАЗГҲЙЛИК, КИБРУ-ҲАВО, МАНМАНЛИК, ГИНА - КУДРАТ, РИЁКОРЛИК, ХИЁНАТ, ҲАСАД, ЖАҲОЛАТ, ТУБАНЛИК, АХМОҚЛИК, ИЧКИЛИКБОЗЛИК, КАШАНДАЛИК, ҚЎРҚОҚЛИК, САБРСИЗЛИК, АХЛОҚСИЗЛИК, ЖОҲИЛЛИК, ОЛИФТАЛИК, ОЧКЎЗЛИК, ҒАМ-АНДУҲ, ЗУЛМАТ, ҲИРС, МАКР - ҲИЙЛА, АДОВАТ, ФИСҚУ – ФАСОД, ТАКАББУРЛИК, ҒАФЛАТ, ЯРАМАСЛИК, ХАСТАЛИК, БАХИЛЛИК, МАНҚУРТЛИК, ЗИНО, ЗИЁН – ЗАҲМАТ, БЎҲТОН, ТУҲМАТ, ҲАРОМХЎРЛИК ВА ФАЛОКАТЛАРДАН холи турмуш тарзини яратамиз. Токи жамиятимизни издан чиқарувчи салбий туйғулардан холи бўлмас эканмиз, мусаффо ҳаёт тарзини қуролмаймиз. Бизнинг покиза элимизга, буюк миллатимизга, келажакки порлоқ ватанимизга миллий маданиятимиз, гўзал ва юксак маънавиятимиз, нурли маърифатимиз орқали ўзга давлатлар ҳавас билан қарашсин ва биздан ўрнак олишсин. Глобал маданийлашув миллатларнинг аслиятига соя ташлаб турган бир пайтда инсонийлик принципларимизни миллий анъаналаримизга ва маънавиятимизга қаратмасак, ҳеч қандай натижага эришолмаймиз... Ўзлимизга қайтиш фасли келди... Ва халқимиз ҳам ўз аслига

қайтишни бажонидил истайди. Ва айнан ўзликка қайтиш борасидаги илмий дастурларни маъсул шахслардан сабрсиз кутмоқдалар. Ва биз ҳам шу халқ учун, шу эл ва ватан учун ўз маъсулликимизни ҳис қилдик ва илмий назария ва амалиётимизни халқимиз ҳукмига ҳавола этмоқдамизк, бу амаллар миллатимизнинг тафаккурини юксалтиришига заррача шубҳамиз йўқдир.

Бизнинг назарияларимиз ана шундай миллийлик ва мукамал инсонийлик омилларини ўз дастурига киритганки, бундай комиллик принципи албатта, жамиятимизга унинг маънавий ва маданий юксалишига бебаҳо ҳисса қўшади. Нурсафардийя фалсафаси кўп йиллар мобайнида ушбу тизим борасида мукамал дастурларни ишлаб чиққан, булар биз томонимиздан чоп этилган кўпчилик китобларимиз ва рисоаларимизда батафсил баён қилинган. Бизнинг назарий - илмий ва амалий қарашларимиз умид қиламизки, маъсул шахслар учун қадрли ва ҳаётий комилликка дахлдор бўлган бир мукамал фалсафани омма орасига тадбиқ қилишда ўзлари бош - қош бўладилар ва биз бу йўлда миллатимизнинг мукамаллик илмидан бохабар комил инсонлар бўлиб етишмоқлари учун илмий қувватимиз билан бажонидил туриб берамиз. Ва барчангизга инсонийлик мактаби муборак бўлсин деймиз.

So'fiy - tabib shayx Nursafardiy

Ma'naviy etuklik yoxud komillik sarhadlari

*Bizning amallarimiz texnikaviy, kimyoviy yoxud
siyosiy taraqqiyot emas, balki insoniy taraqqiyotdir.*

Nursafardiyya falsafasi xaqida gap ketganda, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, Haq inoyati birla xalqimiz komilligi yo'lida mukammallikka asoslangan ilmiy nazariyamiz va amaliyotimiz millatimiz uchun saodat sarhadlarini ochib beradigan madaniy va ma'rifiy manbaa bo'lib qolishiga ishonchimiz komildir. Bizkim xalqimiz, millatimiz va vatanimiz manfaatlarini ko'zlagan holda, ushbu tizimga bekamu ko'st kirib keldik. Xalqimizning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifiy salohiyati vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir. Va biz bunday omillarni o'z nazariya va amaliyotlarimizda mukammallashtirgan holda komillik sarhadlariga qadam qo'ydik.

Biz tanlagan yo'lning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

Bizning asosiy yutug'imiz xalq yo'lida turganimizdir... Biz xalq bo'lib tug'ildik va xalq birla birgamiz. Nimaiki ezgu - niyatlarimiz bo'lsa xalqqa bag'ishladik va Haq yo'lida turib amallarimizni doimiy mukammalligini ta'minladik. Xalqni madaniy, ma'naviy darajasini ko'tarish, ilmiy salohiyatini oshirish nazariyamizning asosiy printsiplaridan biriga aylandi.

Bizning falsafa jamiyatda o'z o'rniga ega komillik falsafasi bo'lib qoldi. Ilmiy nazariyalarimiz siyosiy ta'limot, iqtisodiy va yoyinki, diniy ta'limotni o'z dasturlariga kiritmadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, bizning falsafa umummilliy qadriyatlar namunasiga aylangan odamiylik maktabiga asos soldi. Bu maktabda siz ezgulikka yo'g'rilgan, komil inson va mukammal shaxs timsolini ko'rasiz...

Bizning jannat yurtimiz o'z ilmiy salohiyati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan diyordir... Dunyo tafakkur tanqisligi ro'y bergan, nobop taraqqiyot ortidan olam ahli boshi berk ko'chaga kirib qolgan, global madaniylashuv quloch yoyib millatlar ma'naviy va madaniy meroslariga, azaliy urf - odatlariga xavf solayotgan bir paytda millatimiz, xalqimizning asl o'zligini asrab qolish har bir vatandoshimizning muqaddas burchi bo'lib qolmog'i kerak. Keyingi yillarda tan olib aytishimiz lozimki, aynan global madaniylashuv va texnik nobop taraqqiyot ta'sirlari bizning yurtimizni ham chetlab o'tmadi. Xalqimizning madaniy boyligi evromadaniyat uslubi bilan qorishib ketdi. Ma'rifiy ilmlar o'z kuchini yo'qota boshladi. Ma'naviyatimiz, global madaniylashuv ta'siridan xalqimiz tafakkuridan yiroqlashib bormoqda. Xalqimizning ilmga chanqoqligi salohiyati so'nib bormoqda. Agarkim, biz millat sifatida, xalqimizni turli madaniy oqimlardan xolos etmasak, millat sifatida o'z qadrimizni yo'qotib qo'yishimiz hech gap emas. Biz yuksak ilm chegaralaridan yiroqlashib oddiy hayot tarziga o'rganib qoldik. Asosiy yumushimiz boylik orttirish, chiroyli imorat qurish, mashina, komp'yuter, millatimizga xos bo'lmagan turli odatlar kashfiyoti, manmanlik bilan o'zimizni ko'z - ko'z qilish, bir - birimizga hasad bilan qarash bo'lib qoldi. Biz millatimiz ko'zguasi bo'lgan mehr - oqibat, saxovat, saxiylik, adolat va haqiqat, ezgulik haqida o'ylamay qo'ydik. Olam ahli uchun namuna

bo'ladigan bebaho urf - odatlarimiz unutilib bormoqda. Milliy liboslarimiz o'rnini evropa kiyimlari egalladi. So'zlashuv madaniyatimizni qadri susaydi. Bu holatlar nimadan darak beradi, ommaviy manqurtlik kasalidan... Manqurtlikka chalingan millat o'zligini yo'qotadi, uning na kelajagi va na tarixi bo'ladi... Manqurt millat hamisha o'zga kuchlar ta'siri ostiga qolib ketadi. Shuning uchun ham millat ravnaqi, vatanimiz kelajagi uchun kurashish uni faqatgina ilmiy salohiyat bilan boyitish, bugungi kunda har birimizning muqaddas burchimiz bo'lmog'i kerak.

Xo'sh, nima qilmoq kerak, degan savol hammamizni o'ylantiradi. Birinchi navbatda xalqimizning madaniy hayotini yuksaltirishimiz kerak. Milliy madaniyat yuksalgan bir paytda xalqimiz ongida tafakkur durdonalari ko'z ochadi... Millatimiz ongida ilmga bo'lgan chanqoqlik o'z samarasini bera boshlaydi. Milliy madaniyatni qanday printsiplar asosida yuksaltirish mumkin? Jamiyatda poraxo'rlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, manmanlik, mehr -oqibatning yo'qolishi, turli xil mayda va xavfli jinoyatlar nimaga sodir bo'ladi? Inson hayotda o'z o'rnini topishi uchun oilaviy tarbiyani o'zi kamlik qiladi. Har tomonlama mukammal bo'lmagan shaxs hayotning turli sinovlari yo'lida boshi gangib qolishi tabiiy holdir. Shaxsni ana shunday murakkab hayot yo'lida adashmasligi va to'g'ri yo'l topishi uchun nazarimda insoniylik maktablarini tashkillashtirish kerak. Va biz bu yo'lida shaxsning ichki dunyosini kashf qilish sirlarini o'rganishimiz, insonning fiziologik ruhiy holatida ijobiy informatsiya qabul qilish markazlarini uyg'otishimiz orqali komillik va mukammallik sarhadlariga keng yo'l ochishimiz kerak. Millat ko'zqusiga aylanishi lozim bo'lgan insoniylik maktabi xalqimiz uchun, jamiyatimiz uchun, vatanimiz uchun mukammallik timsoli bo'lib qolishi tabiiy holdir. Bunday go'zal va beqiyos timsolga faqatgina o'zlikni anglash orqaligina erishishimiz mumkin. Biz bunday mukammallik maktablari alohida ochilishi fikridan yiroqmiz, albatta. Olaylik farzandlarimiz to'qqiz yillik maktabni bitirishdi. Bu paytda ularning ongi ayni ilmga chanqoq bir davriga to'g'ri keladi. Hukumatimiz tomonidan bunyod etilgan kasb - hunar kollejlari va litsey boshlang'ich oliy ta'lim maskanlari biz taklif kiritayotgan ta'limot uchun ayni muddao va imkoniyat belgisidir. Yoshlarimiz uch yillik o'qish davomida ikki yilini kasb va ilmga bag'ishlab, so'nggi bir yilini insoniylik maktabi kurslaridan dasturamal o'tsalar o'ylaymizki, ilmiy salohiyatlari bilan birga teran tafakkur orqali va eng keragi milliylikka asoslangan hayotiy faoliyatlarida millatimizga, xalqimizga nisbatan yorqin kelajakni ta'minlagan bo'lardilar.

Tasavvur qiling, uchinchi kurs insoniylik maktabi bosqichi... Bu kurslardan so'ng imtihon tizimini yo'lga qo'yish kerak... Har bir shaxs mustaqil hayotga qadam qo'yishdan oldin insoniylik imtihonidan o'tishi lozim bo'ladi. Agar shaxsda insoniylik tuyg'ulari ojiz bo'lsa undagi ilm ham jamiyatga foyda berolmaydi. Aksincha, u o'z ilmini millat ravnaqi uchun emas, shaxsiy manfaati uchun foydalanadi. Jamiyatdagi barcha qusurlar aynan insoniylik maktabi yo'qligidan paydo bo'lmayaptimi? Insoniylik

maktabida ta'lim olgan shaxsni ilmiy salohiyatini imtihon qilish shart emas. Chunki insoniylik imtihonidan o'tgan farzand aqlan va tafakkuran ilmni ne chog'li qadrli ekanini yaxshi tushunadi va hech qanday bir buyruqsiz bilimga o'zi intiladi.

Insoniylik maktabi dasturida qanday qo'llanmalar mavjud va u shaxsga nima beradi? Birinchidan shaxs o'zligini angelaydi, kimligini, millatni angelaydi. Komillik va mukammallik sirlarini o'rganadi. Bu yo'nalishda darsliklar ishlab chiqarish olimlarimiz ixtiyorida. Milliy madaniyat nima, milliy ma'naviyat nima, millatimizning bebaho urf - odatlari, tarixiy buyuklik, ma'rifat bu yorqin kelajak, men aslida kimman? Biz buyuk millatimiz, odamiylik ehsonlari, borliq va borlig'im, salomatlik sirlari, hayvonot va nabotot, yurtim ta'rifimda, men vatanni sevaman, xalq o'yinlari, milliy pazandalik, o'zbekim liboslari, mumtoz navolar kabi darsliklar o'ylaymizki, millatimizning hayotiy tajriba va ilmiy salohiyatiga bebaho hissa qo'shadi. Va aynan ana shunday yo'nalishdan bitiruv imtihonlari joriy qilinsa, farzandlarimizni vatanga, millatimizga, xalqimizning madaniyati, ma'naviyati, urf - odatlarini naqadar teran anglashiga qarab uning komillik darajasini anglab olamiz. Insoniylik maktabida insoniylikning eng go'zal ham ichki, ham tashqi qiyofasi mujassamlangan. Bunda farzandlarimiz insoniylikning eng go'zal tuyg'ularini o'rganadilar. Murakkab hayotga komil inson sifatida kirib boradilar. Biz umrimiz davomida hayotning oddiy ko'ringan go'zal tuyg'ularidan bahra olmas ekanmiz, hayotning murakkab yo'llarida adashib qolishimiz va buning oqibatida jamiyatga zarar keltiruvchi nobop harakatlarimiz doimiy odatimizga aylanib qolishi mumkin. Keling, quyida ana shunday tuyg'ular xaqida fikr yuritamiz.

ODOB haqida, odob ko'ngil chashmasining gavhari. Odobning odatlari insonning bezagidir. Odobning xislatlari sizni kamolot bo'stoniga olib kiradi. Shirin muomala, kamtarlik, tilni noo'rin so'zlardan tiymoq, yomon xislatlardan ko'z yumish va hokazo.

AXLOQ xaqida. Axloq ko'ngilning shirin mevasidir, ota - ona maslahatiga quloq tutish, tarbiyachining sabog'iga amal qilish, ko'proq kitob mutoala qilish, do'st tanlashda ehtiyot bo'lish, yomonlar suhbatidan yiroq yurish, yaxshilar xizmatida bo'lish va hokazo.

TARBIYA, ota - ona tarbiyasi, bog'cha tarbiyasi, maktab tarbiyasi, ustoz tarbiyasi, vujud tarbiyasi va hokazo.

TARTIB, tartib ko'ngil ko'chasini odob yo'rig'i bilan pok saqlashdir. Tartibli kishi doimo axloqiy udumlarni hurmat qiladi. Jamiyat oldida o'z burchini munosib bajarib, nojo'ya harakatlardan yiroq yuradi. Xiyonat qilmaslik, sabrli bo'lish, to'g'riso'zlik, kasbga mehr, oilada jonbozlik va hokazo.

INTIZOM, ko'ngil bog'ining lolasidir. Intizomli shaxs kamolot sari intiladi. Aql ko'zini ochmoq, udumlarga rioya etish, amallarni vaqtida bajarish, va'daning ustidan chiqish, yomon xislatlardan yuz o'girish va hokazo.

HISSIYOT, hissiyot ko'ngil bog'ini ravshan etuvchi ongdagi botiniy kuchdir. O'zini tuta bilish, farosatni yuksaltirish, gunohdan yiroq turish, ko'ngilni pok saqlash va hokazo...

RUHIYAT, ko'ngilning bog'bonidir. Ruhiyat pok bo'lsa ko'ngil gulshani oboddir. Haromdan hazar qilish, ongni yuksaltirish va hokazo.

KAYFIYAT, ruhiyatni boshqarish, kelajakka ishonch, yaxshi dam, mukammal ilm va hokazo.

BOKIRALIK, xushxulqlik, nozik tuyg'u, chiroyli fe'l-atvor, mehribonlik, hayo, ehtiros, go'zal fazilatlar va hokazo.

OZODALIK, ruhiyatni poklash, chirkin odatlarni ko'ngilga sig'dirmaslik, vujudni pok saqlamoq, yomon illatlarni odat qilmaslik, sog'lom muhitni yaratish va hokazo.

GO'ZALLIK, ko'ngil gavhari, ko'ngil go'zalligi insonning botiniy javohiri. E'tiqod, sodiqlik, saxiylik, xushxulqlik va hokazo.

SABR, hayot sinovlariga bardosh, kelajakka ishonch bilan qarash, kurashuvchanlik va hokazo.

MUOMALA, inson ziynati, shirinsuxanlik, xushxulqlik, axloqiy tushunchalar va hokazo.

SAXOVAT, saxiylik savoblari, insonparvarlik tuyg'ulari va hokazo.

SAXIYLIK, bahamjihatlik mezonlari, mehr - oqibat nishonalari, miskinlarga muruvvat va hokazo.

FAHM - FAROSAT, ilm o'rganish, donolar suhbatiga intilish, o'zgalarni hurmat etish, iymon e'tiqodli bo'lish, dunyoni anglash va hokazo.

AHDU - VAFO, qalb javohiri, ko'ngilning ko'zidir. Va'daning ustidan chiqmoq, muhabbatga ishonch, sevgiga dog' tushirmaslik, ota - ona burchini ado etmoqlik, xalq xizmatida bo'lish, Vatanga sodiqlik va hokazo...

BAHAMJIHATLIK, inson qudrati, xalq qudratidir, bahamjihatlik, xalq dardi bilan yashamoq, uning ijtimoiy ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shmoqdir. Himmat, xizmat, haqiqat va xokazo.

BAHODIRLIK, xalq manfaati yo'lida kurashmoq, milliy o'zlikni himoya etib, vatan tuprog'i uchun jonfidollikdir. Vatanparvarlik, xalqparvarlik, g'urur, mardlik, matonat, jonfidolik va xokazo.

ZAHMAT, matonat timsolidir. Sabr, nafs odobi, o'zlikni anglash saboqlari va xokazo.

ZEHN, ongning bezagi, ruhiyatning gavxaridir. Vujud tarbiyasi, ilmga chanqoqlik, xotirani mustahkamlash, mutoala va hokazo.

ZIYORAT, savobning asl turlaridan biri. Oddiy odamlar ziyorati, avliyolar qabrini ziyorat qilish, ota -ona va yoru do'stlarni ziyorat etmoq va hokazo.

ISTAK, ko'ngilning ishtiyoqidir. O'tkir zehn, tiniq nigoh, yumshoq mayl, harakat va maqsad va hokazo.

OILAPARVARLIK, muqaddas dargoh, kichik jamiyat. Farzandlarga nisbatan mehribonlik, komil tarbiya, ahillik va hokazo.

HAMDARDLIK, ko'ngil odobi, ko'ngilchanlik, kamtarlik, saxiylik, sheriklik va hokazo.

MOHIRLIK, ko'ngil ko'chasining ravonligidir, mehr, zahmat, matonat, mardlik va hokazo.

MEHMONDO'STLIK, kishiga kibru havo, manmanlik yotdir, odati kamsitmaslik, tortishmaslik, muomala madaniyatini namoyon etish va hokazo.

PARHEZKORLIK, vujudni salomat saqlamoq demakdir. Kundalik eb ichmoq, tilni yomon so'zlardan tiymoq va hokazo.

RAHBARLIK, manmanlik kibru havo emasdir. Kamtar, muloyim, o'z o'rnida qattiqqo'l tadbirli, talabchan va hokazo.

RAHMDILLIK, mehr bulog'idan qaynab chiqqan malham. Mehribonlik, saxiylik va hokazo.

SIPOHLIK, o'zini pok saqlash, g'ururli, noziktabiat, xalqchil, elparvar va hokazo.

FAZILAT, oqibatli bo'lmoq, odobni yuksaltirish, axloqni o'zlashtirish, tarbiya ko'rganlik, intizomga rioya etish va hokazo.

XAYR- EHSON, yaxshilik, oqibatlilik, saxovatli bo'lish va hokazo.

ADOLAT, iymonli bo'lmoq, mard va jasurlik, jaholatga qarshi mardona kurash, haqiqatparvarlik va oila, mahalla, yurt, vatan sha'nini himoya qilmoqlik va hokazo.

EHTIYOTKORLIK, zararli odatlardan chekinish, axloqi buzuvchilardan yiroq yurish, tilni tiyish, yaxshi va yomonni farqiga borish, nafsni tiyish va hokazo.

EHTIROS, qalb ko'zqusining to'lqinidir. Yaxshilarga oshno tutinish, go'zal tuyg'ulardan bahra olish, hayotdan zavqlanish va hokazo.

SODIQLIK, va'daga vafo turkumlari, vatanga, millatga, urf -odatlarga, o'zligiga sodiqlik.

SALOMATLIK, kundalik rejim taqvimi, parhezkorlik amallari, sport turlari va hokazo.

ORIYA, qalb go'zalligi. Nopoklikka yot va'dasiga sodiqlik, teran fikrli, parhezkor, kamgap, kamsuqumlik va hokazo.

MADANIYAT, inson qiyofasi. Tarbiya, odob, axloq, intizom, tartib, ilm, ma'naviyat va hokazo.

O'ZNI TUTMOQ, aqlni charxlash, oriyatli bo'lmoq, kamtarlik, kamgaplik, g'ururli bo'lmoq, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota - onaga mehribonlik, o'zgalarga xokisorlik, muomala madaniyatini yuksaltirish va chekish, ichish, giyohvandlik, kibru - havo, g'aflat, takabburlikdan yiroq yurish va hokazo.

DO'ST TANLASH, uning ichki dunyosini anglash, sinov muhlati, odobi, ahloqiga nigoh, sodiqligini anglash va hokazo.

KASBGA MEHR, sadoqatlilik, halollik, yaratuvchanlik va hokazo.

FARZAND HAQIDA, ota - onaga mehribonlik, oqibatlilik, nasihatlariga amal qilish, vatan oldida mardlik, matonat, qahramonlik, xalqqa hurmat, vatanga xizmat va hokazo.

OTA- ONA, SOFDILLIK, AQL, ILM, QUVVAT, SHIJOAT, IXLOS, QADAM, TAFAKKUR, XIZMAT, XOTIRJAMLIK, ICHKI OLAM, FURSAT, SHUKR, FANO, BAQO HAQIDA, keling

insoniylik faoliyatida neki ezgu niyatlar bor shu maktabda o'rgansinlar. Amaliyot borasida tarixiy muzeylarga tashrif buyurib moziyni o'rgansinlar, so'lim qishloqlarimizga tadbir va sayr uyushtirib qadimiy urf -odatlarimizni, milliy o'yinlar va laparlarimizni momolarimiz, bobolarimizdan o'rganaylik, o'quv maskanlarida milliy liboslar ko'rgazmasi, urf - odatlarimizga asoslangan xalq o'yinlari musoboqalari, milliy taomlar tayyorlash borasida mohir pazandalik tanlovlarini tashkillashtirsak maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan darsliklar qatorida nazariy tomondan haftada kundalik o'quv dasturiga besh soatlik o'qish tartibi kiritilsa, masalan, dushanba kuni Ruhiyat darsi, Salomatlik darsi, Intizom darsi, Zehn darsi, Sofdillik darsi. Keyingi kun kundaligida Ahdu vafo darsi, Bahodirlik va mardlik darsi, Mohirlik darsi, Parhezkorlik darsi, Oilaparvarlik darsi, Rahbarlik darsi va hokazo. Darsliklarni davom ettirishimiz mumkin. Vatanparvarlik darsi, Xalqparvarlik darsi, Orastalik darsi, Sodiqlik darsi, Bokiralik darsi, Odillik darsi, E'tiqod darsi, Muomala darsi, Go'zallik darsi, Savdo - sotiq va o'zbek bozori darsi va hokazo. Amaliyotda esa xalq o'yinlari, milliy an'analarga asoslangan liboslar ko'rigi, milliy taomlar bezagi, milliy hunarmandlik va hokazo... Ushbu biz taklif kiritayotgan o'quv dasturlarimiz faqat kollej va litseylarimiz uchun mo'ljallangan. Va ushbu tizim o'quv maskanlarining qaysi bir yo'nalishi bo'lsin barchasi uchun birdek zarur hayotiy komillik maktabidir. Institut va universitetlarda bu tarbiya usulida bir oz kech qolamiz. Chunki oliy o'quv yurtlariga kirish har kimga ham nasib etavermaydi va ko'pchilik yoshlarimiz bunday mukammal ilmdan bebahra qolishlari mumkin. Ushbu maktab darsliklari hali farzandi voyaga etmagan oilalar, mahalla oqsoqollari, davlatimiz o'z himoyasiga olgan etimxonalar uchun ham muhim qo'llanmadir. Yoshlar mustaqil hayotga qadam qo'yib biror muammoga duch kelsalar, aynan insoniylik printsipti mukammal bo'lmagani uchun, yo o'sha muammoni noto'g'ri hal qiladi va yo muammodan qochadilar. Insoniylik maktabida ta'lim olgan shaxs nafaqat jamiyatda o'z o'rnini topadi, balki oilada ham tarbiya usuli kuchaytirilib bu holat kelajakda oilaviy an'anaga aylanadi.

Biz ushbu dastur bo'yicha barcha darsliklarni tayyorlashni, kerak bo'lsa o'z zimmamizga olamiz va bu borada falsafiy nazariy, ilmiy va ruhiy bilim tajribamizga egamiz. Shu bilan bir qatorda qo'shimcha o'quv dasturlarini mukammal tarzda tayyorlash xizmati olimlarimiz zimmasida va biz ham ularga yondosh turgan holda o'z, nazariyalarimiz bilan hissa qo'shishga tayyor holatdamiz. Biz istardikki, milliy hayot tarzimizni qayta oilamizga kiritaylik, milliy liboslarimizga qaytaylik, xalq o'yinlarini tiklaylik, muomala madaniyatimiz yuzimizda ufurib tursin. Ana shunda biz tafakkurimizga salbiy ta'siri bilan manqurtlik botqog'iga botiruvchi G'ARAZGO'YLIK, KIBRU-HAVO, MANMANLIK, GINA - KUDRAT, RIYOKORLIK, XIYONAT, HASAD, JAHOLAT, TUBANLIK, AXMOQLIK, ICHKILIKBOZLIK, KASHANDALIK, QO'RQOQLIK, SABRSIZLIK, AXLOOSIZLIK, JOHILLIK, OLIFTALIK, OCHKO'ZLIK, G'AM-ANDUH, ZULMAT, HIRS, MAKR - HIYLA, ADOVAT, FISQU - FASOD, TAKABBURLIK, G'AFLAT, YARAMASLIK, XASTALIK, BAXILLIK,

MANQURTLIK, ZINO, ZIYON - ZAHMAT, BO'HTON, TUHMAT, HAROMXO'RLIK VA FALOKATLARDAN xoli turmush tarzini yaratamiz. Toki jamiyatimizni izdan chiqaruvchi salbiy tuyg'ulardan xoli bo'lmas ekanmiz, musaffo hayot tarzini qurolmaymiz. Bizning pokiza elimizga, buyuk millatimizga, kelajagi porloq vatanimizga milliy madaniyatimiz, go'zal va yuksak ma'naviyatimiz, nurli ma'rifatimiz orqali o'zga davlatlar havas bilan qarashsin va bizdan o'rnak olishsin. Global madaniylashuv millatlarning asliyatiga soya tashlab turgan bir paytda insoniylik printsiplarimizni milliy an'analarimizga va ma'naviyatimizga qaratmasak, hech qanday natijaga erisholmaymiz... O'zligimizga qaytish fasli keldi... Va xalqimiz ham o'z asliga qaytishni bajonidil istaydi. Va aynan o'zlikka qaytish borasidagi ilmiy dasturlarni ma'sul shaxslardan sabrsiz kutmoqdalar. Va biz ham shu xalq uchun, shu el va vatan uchun o'z ma'sulligimizni his qildik va ilmiy nazariya va amaliyotimizni xalqimiz hukmiga havola etmoqdamizk, bu amallar millatimizning tafakkurini yuksaltirishiga zarracha shubhamiz yo'qdir.

Bizning nazariyalarimiz ana shunday milliylik va mukammal insoniylik omillarini o'z dasturiga kiritganki, bunday komillik printsiipi albatta, jamiyatimizga uning ma'naviy va madaniy yuksalishiga bebaho hissa qo'shadi. Nursafardiyya falsafasi ko'p yillar mobaynida ushbu tizim borasida mukammal dasturlarni ishlab chiqqan, bular biz tomonimizdan chop etilgan ko'pchilik kitoblarimiz va risolalarimizda batafsil bayon qilingan. Bizning nazariy - ilmiy va amaliy qarashlarimiz umid qilamizki, ma'sul shaxslar uchun qadrli va hayotiy komillikka daxldor bo'lgan bir mukammal falsafani omma orasiga tadbiq qilishda o'zlari bosh - qosh bo'ladilar va biz bu yo'lda millatimizning mukammallik ilmidan boxabar komil insonlar bo'lib etishmoqlari uchun ilmiy quvvatimiz bilan bajonidil turib beramiz. Va barchangizga insoniylik maktabi muborak bo'lsin deymiz.

www.nursafardiyya-sufism.uz